

KREATIV IQTISODIYOTDA BITIRUVCHILAR ISH BILAN BANDLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARI

Xujayeva Vasilina Sergeyevna

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) izlanuvchisi

G.V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22280359>

Annotatsiya. Mazkur tezisda inson kapitalini shakllantirish natijalarini bitiruvchilarning barqaror, mutaxassislikka mos va unumli ish bilan bandligiga aylantirish mexanizmlari tadqiq etilgan. Ish bilan bandlik inson kapitali kapitalizatsiyasining mustaqil bosqichi sifatida talqin qilinib, “ta’lim sifati – birinchi ish o’rni – kasbiy moslashuv – kreativ iqtisodiyot natijalari” zanjiri asoslangan. 2018–2025-yillar ma’lumotlari bo’yicha integral inson kapitali indeksi hamda raqamli-kreativ tarmoqlardagi ish bilan bandlik ko’rsatkichlarining indikativ elastikligi baholangan. Natijalar raqamli-axborot segmentlari ta’lim bazasining kengayishiga ancha sezgir ekanini ko’rsatdi. Yagona raqamli bitiruvchi trekeri, kompetensiyalar profili, dual ta’lim, amaliyot va hududiy kadrlar buyurtmasini uyg’unlashtiruvchi ikki konturli mexanizm taklif etilgan.

Kalit soʻzlar: inson kapitali, bitiruvchilar ish bilan bandligi, kreativ iqtisodiyot, birinchi ish o’rni, raqamli kompetensiyalar, elastiklik, dual ta’lim.

Аннотация. В тезисе исследованы механизмы преобразования результатов формирования человеческого капитала в устойчивую, профильную и продуктивную занятость выпускников. Занятость выпускников обоснована как самостоятельная стадия капитализации человеческого капитала и промежуточное звено между качеством образования и результатами креативной экономики. На основе данных за 2018–2025 годы оценена индикативная эластичность занятости в цифрово-информационных и культурно-досуговых сегментах. Предложен двухконтурный механизм, объединяющий качество подготовки кадров и сопровождение первого рабочего перехода посредством цифрового трекера выпускника, профиля компетенций, дуального обучения, стажировок и регионального кадрового заказа.

Ключевые слова: человеческий капитал, занятость выпускников, креативная экономика, первое рабочее место, цифровые компетенции, эластичность, дуальное обучение.

Abstract. The paper examines mechanisms that convert human capital formation into sustainable, field-related and productive graduate employment. Graduate employment is interpreted as an independent stage of human capital capitalization and as a mediating link between education quality and creative-economy outcomes. Using data for 2018–2025, the study estimates indicative employment elasticity in digital-information and cultural-leisure segments. The results demonstrate that digital and ICT activities respond more strongly to the expansion of the educational base. A two-contour mechanism is proposed, combining education quality with support for the first job transition through a unified graduate tracker, a digital competency profile, dual education, internships and regional workforce demand.

Keywords: human capital, graduate employment, creative economy, first job, digital competencies, elasticity, dual education.

Kirish

Jahon mehnat bozori raqamlashtirish, sun’iy intellektning keng joriy etilishi, platforma mehnati va nomoddiy aktivlar ulushining ortishi ta’sirida tubdan o’zgarimoqda. Jahon iqtisodiy forumi baholariga ko’ra, 2030-yilgacha ish o’rinlarining 22,0% tarkibiy transformatsiyaga uchraydi, 170 mln yangi ish o’rni yaratiladi, 92 mln ish o’rni qisqaradi, amaldagi ko’nikmalarning qariyb 39,0% o’zgaradi va har 100 nafar xodimdan 59 nafari qayta tayyorlash yoki malaka oshirishga muhtoj bo’ladi [5. 2025]. Shu bilan birga, kreativ iqtisodiyot ko’plab mamlakatlarda yalpi ichki mahsulotning 0,5–7,3% ini va jami ish bilan bandlikning 0,5–12,5% ini shakllantirmoqda, kreativ xizmatlar eksportining jahon xizmatlar eksportidagi ulushi esa 19,0% ga yaqinlashgan [4. 2024].

O’zbekistonda muammo oliy ta’limning tez kengayishi bilan yanada dolzarb tus olmoqda. 2024/2025-o’quv yili boshida mamlakatda 222 ta oliy ta’lim tashkiloti faoliyat yuritgan, talabalar soni 1 432,8 ming nafarga, qabul 381,7 ming nafarga, bitiruvchilar soni esa 211,2 ming nafarga yetgan [2. 2025]. Oliy ta’lim qamrovining o’sishi inson kapitalini ko’paytiradi, biroq diplomning o’zi barqaror va yuqori unumli ish

bilan bandlikni avtomatik ta'minlamaydi. Asosiy ilmiy-amaliy masala ta'limda shakllangan bilim, ko'nikma va kompetensiyalarni birinchi ish o'rni, kasbiy moslashuv va keyingi professional rivojlanish orqali iqtisodiy natijaga aylantirishdan iborat.

Inson kapitali nazariyasida ta'lim va kasbiy tayyorgarlik shaxsning kelgusidagi unumdorligi hamda daromadini oshiruvchi investitsiya sifatida qaraladi. Biroq zamonaviy mehnat iqtisodiyoti nuqtayi nazaridan ushbu investitsiyaning haqiqiy qaytimi faqat mehnat bozorida namoyon bo'ladi. Shu sababli bitiruvchilarning ish bilan bandligi ta'limning tashqi natijasi emas, balki inson kapitali kapitalizatsiyasining mustaqil bosqichidir [1. 2025:B. 5–18]. Kapitalizatsiya bu yerda to'plangan bilim va kompetensiyalarning unumli mehnat, daromad, kasbiy barqarorlik va yangi iqtisodiy qiymatga aylanishini anglatadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda tizimli, qiyosiy, institutsional, iqtisodiy-statistik va ekonometrik yondashuvlardan foydalanildi. Asosiy tahliliy model “inson kapitali sifati → bitiruvchilarning ish bilan bandligi → kreativ iqtisodiyot natijalari” ko'rinishida shakllantirildi. Bunda bitiruvchilarning ish bilan bandligi vositachi bo'g'in sifatida qaraladi: oliy ta'limda shakllangan bilim, raqamli ko'nikma va ijodiy salohiyat avvalo mehnat bozorida tekshiriladi, keyin esa axborot texnologiyalari, media, dizayn, muhandislik, tahliliy xizmatlar va boshqa bilimga asoslangan faoliyatlarda iqtisodiy qiymat yaratadi.

Integral inson kapitali indeksi oliy ta'lim qamrovi indeksi va talabalar soni indeksining geometrik o'rtachasi sifatida hisoblandi, bunda 2018-yil 100,0 punkt deb qabul qilindi. Kreativ iqtisodiyotning ochiq statistikada kuzatiladigan natijalari sifatida “axborot va aloqa” sohasidagi ish bilan bandlar soni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuridik shaxslar xodimlari soni hamda san'at, ko'ngilochar va dam olish faoliyatidagi ish bilan bandlar soni tanlandi. Elastiklik koeffitsiyenti bir ko'rsatkich 1,0% ga o'zgarganda ikkinchi ko'rsatkich necha % ga o'zgarishini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichlar qisqa dinamik qator sharoitida indikativ baho bo'lib, sabab-oqibat aloqasini mutlaq isbotlamaydi, biroq tarmoqlar sezgirlikni taqqoslash imkonini beradi.

Asosiy natijalar

Hisob-kitoblar 2018–2025-yillarda O'zbekistonda ta'lim bazasi va raqamli-kreativ tarmoqlar dinamikasi bir xil yo'nalishda kechmaganini ko'rsatdi. Integral inson kapitali indeksi 100,0 punktdan 442,6 punktga oshgan. Shu davrda “axborot va aloqa” sohasidagi ish bilan bandlar soni 62,7 ming nafardan 111,4 ming nafarga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuridik shaxslar xodimlari soni 40 248 nafardan 97 337 nafarga ko'paygan. Aksincha, san'at, ko'ngilochar va dam olish faoliyatidagi ish bilan bandlar soni 65,6 ming nafardan 64,1 ming nafarga kamaygan.

1-jadval

Inson kapitali va kreativ iqtisodiyot ko'rsatkichlarining indikativ dinamikasi

Ko'rsatkich	2018	2025*	Elastiklik
Integral inson kapitali indeksi, punkt (2018 = 100,0)	100,0	442,6	—
“Axborot va aloqa” sohasida ish bilan bandlar, ming nafar	62,7	111,4	0,39
AKT sohasidagi yuridik shaxslar xodimlari, nafar	40 248	97 337	0,59
San'at, ko'ngilochar va dam olish faoliyatida ish bilan bandlar, ming nafar	65,6	64,1	–0,01

Izoh: 2025-yil ko'rsatkichlari yagona hisoblash mantig'i asosida operativ ma'lumotlar bilan to'ldirilgan; elastiklik qiymatlari indikativ bahodir. Manba: muallif hisob-kitoblari.

Olingan 0,39 elastiklik “axborot va aloqa” sohasidagi ish bilan bandlik ta'lim bazasining kengayishiga ijobiy javob berayotganini ko'rsatadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari korxonalaridagi xodimlar soni bo'yicha 0,59 elastiklik yanada yuqori bo'lib, inson kapitalining raqamli korporativ sektorda tezroq kapitalizatsiya qilinayotganini anglatadi. San'at, ko'ngilochar va dam olish faoliyatida –0,01 qiymatning qayd etilishi esa ushbu segmentning o'sib borayotgan bitiruvchilar oqimini yetarli darajada qabul qila olmayotganini va tarmoqda tarkibiy turg'unlik mavjudligini bildiradi. Demak, kreativ iqtisodiyotning

rivojlanishi bitiruvchilar sonining oddiy ko‘payishidan emas, ularning bilim va kompetensiyalari talab yuqori bo‘lgan tarmoqlarda amaliy qo‘llanishidan kelib chiqadi.

2025-yilda yuz bergan institutsional o‘zgarishlar ushbu xulosani mustahkamlaydi. “Kelajakka qadam” markazlari 14 hududdagi 80 ta oliy ta‘lim tashkilotida faoliyat yuritib, bitiruvchilarning 4 529 ta biznes loyihasini 202,1 mlrd so‘m miqdorida moliyalashtirishga ko‘maklashgan. Shu davrda IT Park rezidentlari soni 3 300 tadan oshib, bir yil davomida 10 000 ta yangi ish o‘rni yaratilgan. Ushbu jarayonlar oliy ta‘lim, bitiruvchilarning ish bilan bandligi, raqamli tadbirkorlik va bilimga asoslangan xizmatlar eksportini yagona takror ishlab chiqarish zanjiriga birlashtirish zarurligini ko‘rsatadi [3. 2025].

Taklif etilayotgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizm

Bitiruvchilar inson kapitalini samarali kapitalizatsiya qilish uchun davlat siyosatini ikki konturli tizim asosida tashkil etish taklif etiladi. Birinchi kontur oliy ta‘lim sifati, ta‘lim dasturlarining mehnat bozori talablariga mosligi, amaliy ko‘nikmalar va raqamli kompetensiyalarni shakllantirishni qamrab oladi. Ikkinchi kontur esa bitiruvchini birinchi ish o‘rniga olib chiqish, kasbiy moslashuvini qo‘llab-quvvatlash, ish joyida mustahkamlanishini kuzatish hamda ish beruvchi bilan teskari aloqani ta‘minlaydi. Mazkur ikki kontur uzviy bog‘lanmasa, ta‘limga yo‘naltirilgan investitsiyalarning bir qismi mehnat bozorida yo‘qotiladi.

Birinchi amaliy vosita sifatida yagona raqamli bitiruvchi trekerini joriy etish maqsadga muvofiq. Treker bitiruvchining mehnat holatini o‘qishni tugatganidan keyin 6, 12 va 24 oyda qayd etishi kerak. Unda faqat ishga joylashgan yoki joylashmaganlik emas, balki birinchi ishni qidirish muddati, ishning mutaxassislikka mosligi, mehnat munosabatlarining rasmiyligi, ish joyining barqarorligi, daromad dinamikasi, kompetensiyalardan foydalanish darajasi, kasbiy o‘sish va tadbirkorlikka o‘tish holati ham aks ettirilishi lozim. Bunday tizim oliy ta‘lim tashkilotlari, ish beruvchilar va davlat organlari uchun real vaqtga yaqin boshqaruv ma‘lumotlarini yaratadi.

Ikkinchi vosita bitiruvchining raqamli kompetensiyalar profilidir. Profil an‘anaviy bilimlarni takrorlash bilan cheklanmasdan, vazifani sun‘iy intellekt tizimiga to‘g‘ri qo‘ya olish, olingan natijani tekshirish, ma‘lumotlar ishonchliligini baholash, mualliflik huquqi va shaxsiy ma‘lumotlarni himoya qilish talablariga rioya etish, loyiha jamoasida muloqot qilish hamda yangi texnologiyalarga moslashish qobiliyatlarini o‘lchashi zarur. Ushbu kompetensiyalar bazaviy, amaliy va ilg‘or darajalarda diagnostika qilinishi, natijalar esa raqamli portfolioda qayd etilishi kerak. Bu ish beruvchi uchun diplomdan tashqari aniq va tekshiriladigan kasbiy signalni shakllantiradi.

Uchinchi yo‘nalish oliy ta‘lim va mehnat bozorini amaliy jihatdan yaqinlashtirishdir. Buning uchun dual ta‘lim, haq to‘lanadigan stajirovkalar, “oliy ta‘lim tashkiloti – ish beruvchi – talaba” uch tomonlama shartnomalari, loyiha asosidagi ta‘lim va korxona mutaxassislari ishtirokidagi yakuniy baholash kengaytirilishi lozim. Hududiy kadrlar buyurtmasi uchta axborot manbaini: ish beruvchilarning joriy ehtiyojini, hududiy investitsiya loyihalarining kelgusi talabini va raqamli platformalardagi vakansiyalar dinamikasini birlashtirishi zarur. Yetishmayotgan kompetensiyalar mikromalakalar va qisqa qayta tayyorlash modullari orqali tezkor to‘ldirilishi mumkin.

To‘rtinchi yo‘nalish bitiruvchilarning loyiha va tadbirkorlik asosidagi ish bilan bandligini kengaytirishdir. “Kelajakka qadam” markazlari faqat kredit yoki grant ajratuvchi tuzilma emas, balki biznes g‘oyani tanlash, bozorni tekshirish, mentorlik, moliyaviy rejalashtirish, mahsulotni raqamli bozorlarga olib chiqish va dastlabki ish o‘rinlarini yaratishni kuzatuvchi integral platforma sifatida ishlashi kerak. Natijadorlik ajratilgan mablag‘ miqdori bilan emas, balki 12 va 24 oy davomida faoliyatini saqlab qolgan loyihalar, yaratilgan rasmiy ish o‘rinlari, daromad va eksport tushumi orqali baholanishi maqsadga muvofiq.

Xulosa

Tadqiqot natijalari inson kapitali bilan kreativ iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik bevosita emas, balki bitiruvchilarning ish bilan bandligi orqali shakllanishini ko‘rsatdi. Ta‘lim qamrovi va talabalar sonining o‘sishi iqtisodiy natijaga faqat bilim va ko‘nikmalar birinchi ish o‘rni, mutaxassislikka mos mehnat, professional moslashuv, loyiha va tadbirkorlik faoliyati orqali kapitalizatsiya qilinganda aylanadi. 2018–2025-yillar bo‘yicha baholash raqamli-axborot va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari segmentlari inson kapitali kengayishiga eng sezgir ekanini, an‘anaviy madaniy-ko‘ngilochar segment esa o‘sib borayotgan bitiruvchilar oqimini yetarli darajada qabul qilmayotganini aniqladi.

O‘zbekiston sharoitida amaliy ustuvorlik oliy ta’lim sifati va bitiruvchining birinchi ish o‘rniga o‘tishini yagona boshqaruv tizimiga birlashtirishdan iborat. Raqamli bitiruvchi trekeri, kompetensiyalar profili, dual ta’lim, stajirovka, hududiy kadrlar buyurtmasi va “Kelajakka qadam” mexanizmlarini uyg‘unlashtirish ta’lim investitsiyalarining qaytimini oshiradi, malaka nomuvofiqligini kamaytiradi hamda bitiruvchilarni kreativ iqtisodiyotning yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi tarmoqlariga yo‘naltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurahmonov Q.X., Zokirova N.K. Zamonaviy mehnat iqtisodiyoti. – Moskva: Delo, 2025. – 740 b.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim: statistik press-reliz. – Toshkent, 2025.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi PQ-61-son “Oliy ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarining ishga joylashishiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2025.
4. UNCTAD. Creative Economy Outlook 2024. – Geneva: United Nations, 2024.
5. World Economic Forum. Future of Jobs Report 2025. – Geneva: World Economic Forum, 2025.